



Tadjqiqot.uz

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJY OLIY TA'LIM MUASSASALARI
PROFESSOR-O'QITUVCHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR,
MAGISTRANTLAR VA IJTIDORLI TALABALAR

DAVRIYLIGI: 2018-2024

RESPUBLIKA KO'P TARMOQLI

ILMIY KONFERENSIYA

IYUL

№66

FARG'ONA

YANGI O'ZBEKISTON: 2024

CONFERENCES.UZ

ILMIY TADQIQOTLAR

| ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES |

MATERIALLAR TO'PLAMI



CONFERENCES.UZ

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:
ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
2-ҚИСМ**

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:
НАУЧНЫЙ ИССЛЕДОВАНИИФ
ЧАСТЬ-2**

**NEW UZBEKISTAN:
SCIENTIFIC RESEARCH
PART-2**

ТОШКЕНТ-2024



УЎК 323(575.1)(063)

КБК 66.3(5Ў)я43

Й-18

DOI 10.5281/zenodo.11390854

«ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: Илмий тадқиқотлар» [Тошкент; 2024]

«Янги Ўзбекистон: Илмий тадқиқотлар» мавзусидаги республика 66-қўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 июль 2024 йил. – Тошкент: «Tadqiqot», 2024. – 83 бет

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган етти устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ: – илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазибалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари тахтил қилинган конференцияси.

Маъсул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши -

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар -

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар -

Исмаилов Хусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тугган ўрни -

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви -

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети "Беш муҳим ташаббус" маркази раҳбари)

6. Журналистика -

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар –

Самигова Умида Хамидуллаевна ("Kinder land of Asia" НТМ ўқув ва тарбия ишлари бўйича директор ўринбосари)

8. Адабиёт -

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9. Иқтисодиётда инновацияларнинг тугган ўрни -

Phd Воҳидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10. Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар -

Турсунназарова Эльвира Таҳировна (Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети, таржимонлик факультети, инглиз тили амалий таржимаси кафедраси в.б. доценти, PhD)

11. Жисмоний тарбия ва спорт -

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12. Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши -

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13. Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши -

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)



14.Тасвирий санъат ва дизайн-

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва хаёт-

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар -

Доцент Нормирзаев Абдукаюм Рахимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари -

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар -

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика -

Жалилов Фазлиддин Содикович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария -

Жалилов Фазлиддин Содикович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари -

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)

22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар -

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари -

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар -

Phd доцент Қаххоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

25.География-

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

Page Maker\Верстка\Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналлов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000



ҲУҚУҚ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

МАЪМУРИЙ СУД ИШ ЮРИТУВИДА СУДНИНГ ФАОЛ ИШТИРОКИ ВА ТОРТИШУВ ПРИНЦИПЛАРИНИНГ ЎЗARO МУНОСАБАТИ

Мадримов Хушнуд Кувандикович,
Тошкент давлат юридик
университети мустақил изланувчиси,
kh.madrimov@gmail.com

Аннотация: Ушбу мақолада маъмурий суд иш юритувида суднинг фаол иштироки ва тортишув принципларининг ўзаро муносабати таҳлил қилинган. Хусусан, маъмурий судда суднинг фаол иштироки асосий принцип бўлиши билан бирга, тарафларнинг тортишуви принципига бўлган зарурат очиб берилган. Тадқиқот натижасига кўра, қонунчиликни такомиллаштириши бўйича таклифлар ишлаб чиқилган.

Калим сўзлар: маъмурий суд иш юритуви, суднинг фаол иштироки принципи, инквизиция принципи, тарафларнинг тортишуви принципи, тарафларнинг тенг ҳуқуқлилиги.

Суднинг фаол иштироки принципи маъмурий суд иш юритувининг энг асосий принципи бўлиб, унинг мазмунини аниқ ва тўлиқ тушуниш орқали маъмурий суд иш юритувининг ўзига хос хусусиятларини англаб олиш мумкин бўлади.

Шу билан бирга, маъмурий суд иш юритувида тарафларнинг тортишуви принципи ҳам ўз ўрнига эга эканлигини белгилаб олиш ва бу масалани айнан суднинг фаол иштироки принципи билан ўзаро боғлиқликда тадқиқ этиш зарур.

Бунинг учун, аввало, ушбу иккита принципнинг фуқаролик (иқтисодий) ва маъмурий процесдаги ўрнини таҳлил қилиш керак. Бу борада олимлар ўртасида турли хил фикрлар мавжуд.

Хусусан, Й.Пуделька ва Л.Брокер “инквизиция принципининг қарама-қаршиси тортишув принципи бўлиб, у фуқаролик процессининг бош принципи эканлигини, шу жиҳати билан маъмурий процесс фуқаролик процессидан тубдан фарқ қилишини таъкидлайди” [1].

Ушбу олимларнинг фикрига концептуал жиҳатдан қўшилган ҳолда, маъмурий процесда ҳам тортишув принципи элементлари мавжудлигидан келиб чиқиб, мақоланинг хулоса қисмида унга муносабат билдирамыз.

О.Рогачеванинг фикрига кўра, “шундай ҳуқуқий макон ташкил этиш керакки, тарафларнинг тортишуви билан бирга суднинг фаол роли ҳам акс эттирилиши ва бу норматив ҳужжатларда (Россия Федерацияси Фуқаролик-процессуал кодекси, Арбитраж-процессуал кодекси, Маъмурий суд ишларини юритиш кодекси) белгилаб қўйилиши зарур” [2]. Ушбу позицияга ҳам тўлиқ қўшилиб бўлмайди, чунки айтилган иккита принцип барча процессларда бир хил ўринга эга эмас ва уларнинг амал қилиши ҳам турли даражада бўлади.

Фикримизга кўра, иқтисодий процесда тарафларнинг тортишуви бош принцип бўлиши лозим, айти вақтда суднинг фаол иштироки принципи эмас, балки шунга яқин мазмундаги суднинг процессга раҳбарлиги принципи ҳам ишлаши керак.

Маъмурий процесда эса суднинг фаол иштироки бош принцип бўлиши зарур, айти вақтда суднинг фаол иштироки таъсирида мазмуни қисман ўзгарган тортишув принципи ҳам ишлаши керак. Бундан маълумки, суднинг процессга раҳбарлиги принципи ҳуқуқдаги барча процесслар каби мазмунан маъмурий процесда ҳам мавжуд бўлади.

Бундай нуқтаи назарнинг изоҳи шундаки, Ғарбий Европа давлатлари фуқаролик процессида тарафларнинг фаоллиги ва суд “пассивлиги”га асосланган модел шаклланган, маъмурий ҳуқуқида эса иш ҳолатларини инквизиция қилиб ўрганадиган суднинг фаоллигига асосланган модел юзага келган.

Постсовет давлатларида эса совет тузумидаги давлат жамият ва фуқаролар ҳаётини тўлиқ назорат қилиши ҳақида ғоя таъсирида суд барча ҳуқуқ процессларида фаол бўлишига оид



модел устуворлик қилган, айрим ҳолларда эса ҳозиргача давом этмоқда.

Бунда, эътиборга молик жиҳати шундаки, суднинг фаол иштироки принципига яқин бўлган “суд ишдаги ҳақиқий ҳолатларни тўлиқ аниқлаш чораларини кўришга ҳақли” деган мазмундаги норма Ўзбекистон Фуқаролик-процессуал кодекси 15-моддасида ҳозир ҳам мавжуд, бир хил концепцияга эга Иқтисодий-процессуал кодексда эса йўқ. Бизнинг фикрга кўра, агар Фарбий Епропа моделига асосланилса, бу иккита кодексда ҳам бўлмаслиги керак.

Демак, юқоридаги таҳлиллар – Ўзбекистон Республикаси Маъмурий суд ишларини юритиш тўғрисидаги кодексига суднинг фаол иштироки принципи киритилганда ҳам, тарафлар тортишуви принципининг мазмуни қисман сақлаб қолиниши зарурлигини англатади.

Чунки, суднинг фаол иштироки принципини киритишдан мақсад – нотенг тарафларнинг процессуал тенглигини таъминлаб, ҳақиқий тортишувга шароит яратишдан иборат бўлган. Л.Брокер “суднинг иш ҳолатларини ўрганиш мажбурияти фуқаро ва маъмурий орган ўртасидаги “ҳокимият нотенглиги”ни юмшатиш учун тузатиш вазифасини бажаради”, М.У.Эшимбетов “суднинг фаол ролини таъминлаш тарафларнинг тортишуви ва тенглигини ҳамда суд ҳимояси ҳуқуқини амалга оширишда реал имконият яратади” [3], деб шунга яқин фикр билдирган.

Лекин, мазкур кодексга бу принципни киритишда таклифдан асосий мақсад бўлган тортишув принципи чиқиб кетган. Тўғри, тортишув фуқаролик процессида соф (классик) шаклда намоён бўлади ва асосий принциплардан бири ҳисобланади, бироқ бу ҳолат тортишувнинг суд фаоллиги билан қисман ўзгарган мазмуни маъмурий суд иш юритувида қолмаслигини англатмайди.

Яъни, маъмурий процессда тортишув принципи мазмунан трансформация бўлиб, суднинг фаол иштирокидаги тарафларнинг тортишуви принципига айланиши керак ёки суднинг фаол иштироки алоҳида принцип сифатида белгиланиб, тортишувнинг мазмуни бошқача шаклда сақлаб қолиниши зарур.

Бунда, масаланинг амалий томонига ҳам алоҳида эътибор қаратиш керакки, тортишув принцип сифатида кодексдан чиқарилган бўлсада, маъмурий судда тарафлар тортишуви давом этмоқда ва бу нормал ҳолат. Чунки, низо мавжудлигининг ўзи тортишувга асос бўлади.

Яна бир муҳим аргумент шундаки, Ўзбекистон Республикаси Конституциясидаги қонунийлик ва тенг ҳуқуқлилик принципларидан келиб чиқиб, суднинг фаол иштироки принципи холисликни сақлаган ҳолда амалга оширилиши зарур.

Чунки, суднинг ўзи фаол бўлиб далилларни аниқлаши оқибатида тарафларда унинг холислигига шубҳа юзага келмаслиги керак. Агар кодексда бу принципни холислик асосида амалга ошириш зарурлиги белгиланмаса, судьялар ўзининг беғаразлигини кўрсатиш ёки нохолислигини суғурталаш учун ҳам фаол иштирок принципини ишлатмаслиги мумкин.

Илғор хорижий тажрибада ҳам юқоридаги таклифни тасдиқловчи жиҳатлар мавжуд. Хусусан, Грузияда тортишув ва ишни суд томонидан ўрганиш принциплари Маъмурий-процессуал кодекснинг бир моддасида, яъни 4-моддасида белгиланган бўлса, Эстония Маъмурий-процессуал кодекси 2-моддаси 4-қисмида суд иш ҳолатини ўрганиши, 6-қисмида эса мазмунан тортишувга оид нормалар акс эттирилган. Украина Маъмурий суд ишларини юритиш кодекси 9-моддаси 1-қисмида тортишув ва диспозитивлик, 2 ва 4-қисмларида иш ҳолатларини расмий аниқлаштириш принциплари белгиланган [4].

Катта назарий билим ва амалий тажрибага эга мутахассислар, хусусан Россия Олий арбитраж суди собиқ раиси, профессор В.Ф.Яковлев “тортишувни суднинг фаол роли принципига қарама-қарши қўйиш нотўғрилиги” [5], Озарбайжон Олий суди судьяси С.Каримов “суднинг фаоллигига оид ёндашув суд иш юритувининг тортишувчанлигини ривожлантиришга тўсқинлик қилмаслиги” [6] ҳақида фикр билдирган.

Шунингдек, Й.Пуделька ва Л.Брокернинг мақола бошланишида таъкидланган фикрини ўрганиб шундай муносабат билдириш мумкинки, тортишув ва суднинг фаол иштирокига оид таклифимиз Германия маъмурий процесси принципларининг мазмунига зид эмас.

Хусусан, Германия маъмурий процессидаги томонларнинг тинглатиш имконияти мавжудлиги ва адолатли суд муҳокамасига бўлган ҳуқуқ ҳақидаги принциплар биз муҳокама қилган тортишув принципининг суднинг фаол иштироки билан ҳамоҳанглашган мазмунини ифодалайди.

Чунки, бу принциплар тарафлар судда бевосита тортишиши учун процессуал шароит яратишни талаб қилади.

Юқоридагиларга кўра, Ўзбекистон Республикаси Маъмурий суд ишларини юритиш тўғрисидаги кодекси 11-моддасида суднинг фаол иштироки принципига зид бўлмаган



мазмундаги тарафларнинг тортишуви принципи ҳақиқат белгилаш ёки тортишувнинг мазмунини бошқа шаклда сақлаб қолиш, шунингдек бу моддага фаол иштирок принципи судьянинг холислиги асосида амалга ошириш бўйича ўзгартириш киритиш таклиф этилади.

Адабиётлар рўйхати

1. Пуделька И. Общие принципы административного производства. Брокер Л. Инквизиционный принцип административном праве. // Ежегодник публичного права 2018: Принципы административных процедур и административного производства. – М.: Инфотропик Медиа, 2018. С. 4. 22.
2. Рогачева О. Принцип состязательности и активная роль суда в гражданском, арбитражном и административном судопроизводстве: процессуальное значение и проблемы реализации. // Ежегодник публичного права 2018: Принципы административных процедур и административного производства. – М.: Инфотропик Медиа, 2018. С. 256.
3. Брокер Л. Инквизиционный принцип административном праве. // Ежегодник публичного права 2018: Принципы административных процедур и административного производства. – М.: Инфотропик Медиа, 2018. С. 23.
4. Эшимбетов М.У. Маъмурий органлар ва улар мансабдор шахсларининг қарорлари, ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) юзасидан келиб чиқувчи низоларни судда кўриб чиқиш тартибини такомиллаштириш // Юрид. фан. бўй. фал. док. (PhD) ...дисс. – Т., 2023. – 116-б.
5. base.garant.ru/70885220.
6. Судебный генералитет обсудил проблемы совершенствования правосудия. rg.ru/2006/03/10/sud-reforma.html.
7. Каримов С. Доказывание в административном процессе. // Ежегодник публичного права 2022: Доказательства и доказывание в административном праве. – Берлин: Инфотропик Медиа, 2022. С. 74.



ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН МАҲАЛЛИЙ КЕНГАШЛАРИНИНГ НАЗОРАТ
ВАКОЛАТЛАРИ

Реймова Зухра Абатбаевна,
юримдик фанлари доктори, профессор
Мамбетназаров Генжемурат Джумабаевич,
Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университети
муствақил изланувчиси

АННОТАЦИЯ: Мазкур тезисда Қорақалпоғистон Республикаси маҳаллий Кенгашлари томонидан назорат шаклидаги ваколатларини амалга оширишлари статистик маълумотлар асосида атрофлича таҳлил қилинган.

КАЛИТ СЎЗЛАР: кенгаш, ваколат, назорат, депутат, давлат, ҳисобот.

Маҳаллий Кенгашлар ўзларига ҳисобот бериб турувчи органлар фаолиятини назорат қиладилар. Шунингдек, халқ депутатлари Кенгашлари ўз ҳудудларида қонунийлик, ҳуқуқ-тартибот ва хавфсизликни таъминлаш бўйича назорат олиб борадилар.

Маҳаллий Кенгашларнинг *назорат қилишга оид ваколатларига* масъул шахсларнинг ҳисобот(ахборот)ларини тинглаш; депутатлик сўрови; қонунчилик ҳужжатлари нормаларининг давлат органлари томонидан ижро этилишини ўрганишни тушунишимиз ўринли.

Амалдаги Қорақалпоғистон Республикасининг “Маҳаллий давлат ҳокимияти тўғрисида”ги Қонунининг 21-моддасида Халқ депутатлари туман, шаҳар Кенгашларининг ваколатлари белгиланган бўлиб, ушбу модданинг 1-қисми ўн тўртинчи хатбошисида “ижро ҳокимияти бўлимлари, бошқармалари ва бошқа таркибий бўлимлари раҳбарларининг ҳисоботларини, шунинг билан бирга қонунларга риоя этилиши, тегишли халқ депутатлари Кенгашлари қарорларининг ва доимий комиссиялар тавсияларининг бажарилиши юзасидан ҳисоботларини эшитиш”[1] қайд этилган.

Таҳлилларга кўра, Қорақалпоғистон Республикаси маҳаллий кенгашлари томонидан ўтган 2023 йил давомида жами 272 та сессиялар ўтказилган бўлиб, унда жами 2811 та қарорлар қабул қилинган. Қабул қилинган қарорларнинг 1175 таси идора-ташқилот раҳбарларининг ҳисоботини эшитиш масаласи ҳисобланади.

Маҳаллий Кенгашлар томонидан ҳисоботлар бўйича қабул қилинган қарорларни туман-шаҳар кесимида таҳлил қилганимизда Нукус шаҳри маҳаллий Кенгаши томонидан 59 та, Амударё тумани маҳаллий Кенгаши томонидан 43 та, Беруний тумани маҳаллий Кенгаши томонидан 59 та, Бўзатов тумани маҳаллий Кенгаши томонидан 61 та, Кегейли тумани маҳаллий Кенгаши томонидан 74 та, Қораўзак тумани маҳаллий Кенгаши томонидан 73 та, Қонликўл тумани маҳаллий Кенгаши томонидан 59 та, Қўнғирот тумани маҳаллий Кенгаши томонидан 49 та, Мўйноқ тумани маҳаллий Кенгаши томонидан 84 та, Нукус тумани маҳаллий Кенгаши томонидан 87 та, Тахтакўпир тумани маҳаллий Кенгаши томонидан 59 та, Тахиатош тумани маҳаллий Кенгаши томонидан 81 та, Тўрткўл тумани маҳаллий Кенгаши томонидан 66 та, Хўжайли тумани маҳаллий Кенгаши томонидан 73 та, Чимбой тумани маҳаллий Кенгаши томонидан 95 та, Шўманай тумани маҳаллий Кенгаши томонидан 78 та, Эллиққалъа тумани маҳаллий Кенгаши томонидан 75 та қарорлар қабул қилинган [2].

Шунингдек, ушбу қабул қилинган қарорларнинг 537 таси идора-ташқилот раҳбарларининг ахборотини эшитиш масаласи ҳисобланади. Маҳаллий Кенгашлар томонидан ахборотлар бўйича қабул қилинган қарорларни туман-шаҳар кесимида таҳлил қилганимизда Нукус шаҳри маҳаллий Кенгаши томонидан 31 та, Амударё тумани маҳаллий Кенгаши томонидан 30 та, Беруний тумани маҳаллий Кенгаши томонидан 21 та, Бўзатов тумани маҳаллий Кенгаши томонидан 21 та, Кегейли тумани маҳаллий Кенгаши томонидан 27 та, Қораўзак тумани маҳаллий Кенгаши томонидан 12 та, Қонликўл тумани маҳаллий Кенгаши томонидан 73 та, Қўнғирот тумани маҳаллий Кенгаши томонидан 20 та, Мўйноқ тумани маҳаллий Кенгаши томонидан 19 та, Нукус тумани маҳаллий Кенгаши томонидан 12 та, Тахтакўпир тумани маҳаллий Кенгаши томонидан 44 та, Тахиатош тумани маҳаллий Кенгаши томонидан 52 та, Тўрткўл тумани маҳаллий Кенгаши томонидан 52 та, Хўжайли тумани маҳаллий Кенгаши томонидан 18 та, Чимбой тумани маҳаллий Кенгаши томонидан 23 та, Шўманай тумани маҳаллий Кенгаши томонидан 27 та, Эллиққалъа тумани маҳаллий Кенгаши томонидан 55 та



қарорлар қабул қилинган.

Бундан ташқари, Қонуннинг 21-моддаси 1-қисми ўн тўққизинчи хатбошисида “Депутатлик сўровларини эшитиш, натижаси юзасидан қарорлар қабул қилиш” белгиланган.

Қорақалпоғистон Республикаси маҳаллий кенгашлари депутатлари томонидан ўтган **2023** йил давомида жами **1452** та идора-ташкилот раҳбарларига депутатлик сўровлари юборилган.

Маҳаллий Кенгашлар депутатлари томонидан депутатлик сўровлари юборилишини туман-шаҳар кесимида таҳлил қилганимизда Нукус шаҳар Кенгаши депутатлари томонидан 109 та, Нукус тумани Кенгаши депутатлари томонидан 48 та, Амударё тумани Кенгаши депутатлари томонидан 74 та, Беруний тумани Кенгаши депутатлари томонидан 109 та, Бўзатов тумани Кенгаши депутатлари томонидан 40 та, Кегейли тумани Кенгаши депутатлари томонидан 113 та, Қораўзак тумани Кенгаши депутатлари томонидан 115 та, Қонликўл тумани Кенгаши депутатлари томонидан 119 та, Қўнғирот тумани Кенгаши депутатлари томонидан 72 та, Мўйноқ тумани Кенгаши депутатлари томонидан 29 та, Тахтақўпир тумани Кенгаши депутатлари томонидан 98 та, Тахиатош тумани Кенгаши депутатлари томонидан 83 та, Тўркўл тумани Кенгаши депутатлари томонидан 89 та, Хўжайли тумани Кенгаши депутатлари томонидан 113 та, Чимбой тумани Кенгаши депутатлари томонидан 62 та, Шуманай тумани Кенгаши депутатлари томонидан 90 та, Эллиқалъа тумани Кенгаши депутатлари томонидан 89 та мансабдор шахсларга депутатлик сўрови юборилган.

Қорақалпоғистон Республикасида 2022 ва 2023 йиллар давомида МЖТКнинг 193-моддаси юзасидан туман ва шаҳар давлат идоралари мансабдор шахслари жавобгарликка тортилмаган, фақатгина 2021 йилда Тахиатош туманида фаолият юритувчи АТ “Халқ банки” Тахиатош филиали бошқарувчиси томонидан халқ депутатлари Тахиатош тумани Кенгаши “Марказий” сайлов округи депутатининг 25.05.2021 йилдаги депутат сўровини кўриб чиқиш муддатарини узрли сабабларсиз бузганлиги учун Жиноят ишлари бўйича Тахиатош туман суди томонидан жарима жазоси тайинланган [3].

Қайд этилганлардан келиб чиқиб хулоса қилиш мумкинки, маҳаллий типдаги ижтимоий ва иқтисодий масалаларни ҳал этиш, ривожлантиришда, депутатлик назоратини таъминлашда маҳаллий Кенгашлар томонидан назорат шаклидаги ваколатларини тизимли ва самарали амалга оширишлари лозим.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. <https://joqargikenes.uz/oz/>.
2. Қорақалпоғистон Республикасининг Жўқорғи Кенгеси Аппаратининг 24.01.2024-йилдаги 03-13/77-сон хати.
3. <https://public.sud.uz/report/conflict> (Ўзбекистон Республикаси Олий судининг интернет тармоғида эълон қилинган суд қарорлари веб-сайти).



ТЕРРОРИЗМ ЖИНОЯТИНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШДА ПРОВАЙДЕР ВА МЕССЕНДЖЕРЛАРГА ТЎҒРИДАН-ТЎҒРИ СЎРОВ ЮБОРИШ

Нажмитдинов Нодирхон Амриллохонович

Ўзбекистон Республикаси Хуқуқни
муҳофаза қилиш академияси ўқитувчиси

Телефон: +998900112216

E-mail: amrilloxon47@gmail.com

Аннотация: Мазкур мақолада терроризм билан боғлиқ жиноятларни тергов қилиш жараёнида электрон маълумотларни бутлигини таъминлаш бўйича мессенджер ва провайдерларга сўровнома тайёрлаш ҳамда уни юбориш тартиби ёритиб ўтилган.

Калит сўзлар: терроризм, рақамли далиллар, профиль номи (username), профилнинг ID рақами, антикриминалистика, домен.

Терроризм билан боғлиқ жиноятлар Ўзбекистон Республикаси ЖКнинг 15-моддасида оғир ва ўта оғир жиноятлар туркумига киритилган бўлиб, мазкур жиноят содир этилишининг ҳар қандай босқичида бевосита бажарувчиларнинг ўзи ва иштирокчилар жинойий жавобгарликдан қутулиш мақсадида содир этилган жиноят изларини, яъни рақамли далилларни йўқ қилиш, яширишга ҳаракат қилишади. Хусусан, рақамли антикриминалистика усулларида ҳисобланган: мессенджерлар орқали олиб борилган ёзишмалар, аудио ва видео хабарларни, материалларни ўчириб ташлаш, смартфон ва бошқа ахборот ташувчи қурилмаларни физик йўқ қилиш (масалан яшаш манзилда тўсатдан тинтув тергов ҳаракати ўтказилганда, гумон қилинувчи фойдаланган смартфонни қаттиқ жисм билан синдириш, сувга ташлаш ёхуд микротўлқинли печ ичида ёқиб юбориш ҳолатлари тажрибада тез учраб туради) чораларини кўришади.

Шу билан бирга, бундай турдаги жиноятларни содир этишда гуруҳ аъзолари бир-бирлари билан мессенджерлар орқали мулоқотда бўлиш жараёнида ёзишма ва маълумотларнинг автоматик тарзда учирлиши ёхуд Интернет протоколи овозли телефонлар (VoIP) функциясида ўзаро фойдаланишлари мумкин.

Ўтказилган тезкор-қидирув тадбирлари ёхуд дастлабки тергов давомида мазкур жиноятда иштирок этганликда гумон қилинган шахснинг жиноят содир этганлигини исботловчи далилларни тўплаш ва жиноят учун жазо муқаррарлиги принципини таъминлаш мақсадида, мессенджерлар орқали олиб борилган ёзишма ва маълумот алмашувлар ўчириб юборилган ёхуд компьютер-техникавий экспертизага тақдим қилинган тадқиқот объекти экспертиза ўтказиш учун яроқсиз деб топилган тақдирда, уларни қисқа муддат ичида хизмат кўрсатган провайдерлардан тегишли тартибда сўров тайёрлаган ҳолда сўраб олиш зарур бўлади. Мазкур жараёнда сўровнинг тезкорлик билан юборилиши жиноятнинг ҳар томонлама, тўлиқ фош этилиши ҳамда содир этилиши мумкин бўлган жиноятнинг ва унинг оқибатларини олдини олишга хизмат қилади [1].

Бунинг учун дастлаб гумон қилинувчи томонидан фойдаланилган мессенджер, ундаги akkaунтининг ID рақамини аниқлаш лозим. Мессенджерлардаги фойдаланувчининг номи (username: @... манзили) ID рақамидан фарқ қилади. Масалан, Telegram мессенджери мисолида фойдаланувчи номини ҳар бир фойдаланувчи ўзи “Созламалар”, “Менинг профилим” бўлимида яратиб уни керакли вақтда ўзгартириши мумкин. Мазкур фойдаланувчи номи бошқа профиллар билан телефон рақамни ошкор қилмасдан туриб, тезкор маълумот алмашиш имкониятини беради. Профилнинг ID рақами эса фақат рақамлардан иборат бўлиб, уни фойдаланувчи қўшимча дастурларсиз, “Созламалар” бўлимида аниқлаш имкониятига эга эмас. Профилнинг ID рақами мессенджер учун маълумотларни тизимли сақлаб бориш, профиллар бир-бирига боғлаш, улардаги ёзишма ва алмашилган маълумотлар, метамаълумотларни қайта тиклаш учун ҳар бир фойдаланувчи учун ўзига хос идентификация рақами ҳисобланади ва уни ўзгартиришнинг имконияти мавжуд эмас. Шу сабабли, хуқуқни муҳофаза қилувчи органларга сўров юборишда фойдаланувчининг номи эмас, балки унинг ID рақамини аниқлаш муҳим ҳисобланади. Профилнинг, гуруҳ ёхуд каналнинг ID рақамини аниқлаш учун @getmyid_bot бот имкониятларидан фойдаланиш мумкин [2].

Шу ўринда қайд этиб ўтиш жоизки, турли хид провайдер ва мессенджерлар серверларида жойлашган электрон маълумотлар узоқ вақт давомида сақланмайди (одатда 30 кунгача). Ўз



навбатида, расмий каналлар орқали ўзаро ҳуқуқий ёрдам сўраб мурожаат қилиш кўп вақт талаб этади. Шу муносабат билан ваколатли орган текширилаётган иш доирасида электрон далиллар сифатида ишлатилиши мумкин бўлган маълумотларнинг бутлигини таъминлаш учун дарҳол чоралар кўриши керак. Бундай чоралардан бири тўғридан-тўғри хизмат кўрсатувчи провайдерга ёхуд мессенджерга маълумот бутлиги (хавфсизлиги)ни таъминлаш тўғрисида сўров юбориш ҳисобланиб, мазкур сўровномани тайёрлашни аҳоли орасида оммабоп бўлган Telegram ва WhatsApp мисолида кўриб чиқамиз.

Telegramда ҳуқуқни муҳофаза қилиш идоралари билан ҳамкорлик тўғрисидаги маълумотларни ўз ичига олган махсус бўлим мавжуд эмас. Шу билан бирга Telegram ҳуқуқни муҳофаза қилиш органларининг расмий сўровларини қўллаб-қувватлар тизими орқали қабул қилади.

- Маълумот хавфсизлигини таъминлаш тўғрисидаги сўровда қуйидагилар бўлиши керак.
- Сўров юборилаётган расмий манзил: Telegram Messenger LLP
- Ваколатли органнинг номи;
- Шахсни тасдиқловчи ҳужжат ёки масъул вакилнинг идентификация рақами;
- Ички ишлар идораси доменидаги электрон почта манзили ва боғланиш учун тўғридан-тўғри телефон рақами;
- Айнан қандай маълумотларнинг (ёзишма, аудио-видео хабарлар, VoIP, яъни амалга оширилган Telegram кўнғироқлар ва ҳ.к.) хавфсизлигини таъминлаш лозим бўлган маълумотлар;
- Telegramда фойдаланувчи ID рақами, фойдаланувчи номи ва барча тегишли давлат кодлари (+998 хх-xxx-хх-хх) ҳамда мазкур сўров учун асос.

Маълумотларнинг хавфсизлигини таъминлаш учун сўровни <https://telegram.org/support> қўллаб-қувватлаш платформаси орқали юбориш керак, унда ҳуқуқни муҳофаза қилиш идораси доменидаги расмий чопта манзили ва алоқа рақамини кўрсатиш лозим [3].

WhatsApp етказилган хабарларни, шунингдек, етказилган хабарларнинг транзакциялар журналини сақламайди. Етказилмаган хабарлар 30 кундан кейин серверлардан ўчирилади. WhatsAppда ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари сўровлари онлайн-тизими мавжуд бўлиб, барча сўровлар ушбу тизим орқали юборилиши лозим.

- WhatsApp расмий суд қарорини олишдан олдин 90 кун давомида маълумотларнинг хавфсизлигини таъминлайди.
- Маълумотлар хавфсизлигини таъминлаш бўйича сўровда қуйидагилар кўрсатилиши лозим:
- Сўров юборилаётган расмий манзил: WhatsApp LLC, Law Enforcement Response Team; WhatsApp LLC, 1 Meta Way, Menlo Park, California 94025 United States of America.
- Ваколатли органнинг номи;
- Масъул вакилнинг шахсни тасдиқловчи ҳужжати ёки идентификация рақами;
- Ички ишлар идораси доменидаги электрон почта манзили ва боғланиш учун тўғридан-тўғри телефон рақами;
- Айнан қандай маълумотларнинг (ёзишма, аудио-видео хабарлар, амалга оширилган WhatsApp кўнғироқлар ва ҳ.к.) хавфсизлигини таъминлаш лозим бўлган маълумотлар, WhatsApp akkaунт рақами, шунингдек, амалдаги мамлакат телефон рақами кодлари (+998 хх-xxx-хх-хх) [4].

Хизмат кўрсатувчи провайдер ёхуд мессенджерларга юборилган барча сўровлар ҳуқуқни муҳофаза қилиш идораси доменидаги расмий электрон почта манзили орқали инглиз тилида юборилиши лозим.

Шу билан бирга, маълумотларнинг очилиши ўлим, танага жиддий зиён етказиш, терроризм хавфи билан боғлиқ бўлган ҳолатларда провайдерлар ва мессенджерларга сўровномалар “шошилич” бўлими орқали жўнатилади. Мазкур сўровномаларда ушбу маълумотлар провайдер ва мессенджер томонидан қисқа муддат ичида тақдим қилинмаган тақдирда, қайд этилган оқибатлар юзага келиши мумкинлиги асос қилиб кўрсатилиши лозим.

Хулоса қилиб, шуни таъкидлаб ўтиш жоизки, ҳозирги рақамли технологиялар даврида терроризм билан боғлиқ жиноятларни ўз вақтида олдини олиш, мазкур жиноятларни пухта тергов қилиш, ушбу жиноятга алоқадор барча шахсларни, яъни раҳбар ва молиялаштирган ташкилотчиларни аниқлаш учун тергов органларидан рақамли криминалистика соҳасида



юқори малакани талаб қилади. Шу муносабат билан, ваколатли органларга зарур электрон далилларни олиш учун барча мумкин бўлган имкониятлардан фойдаланиш тавсия этилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Чегаралар бўйлаб электрон далилларни сўраш бўйича амалий қўлланма. БМТ НЖҚКБ, Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг терроризмга қарши кураш қўмиттасининг ижроия директори ва Халқаро прокурорлар ассоциацияси.

2. <https://perfluence.net/blog/article/kak-uznat-id-telegram>.

3. Ахборот технологиялари соҳасидаги жиноятлар (Кибержиноятлар): турлари, квалификацияланиши ва уларга нисбатан тергов ҳаракатларини ўтказиш тактикаси. “Baktria press”. Toshkent. 2020. 167-172 б.

4. https://faq.whatsapp.com/444002211197967/?helpref=uf_share



PEDAGOG KADRLARNING BOSHQARUV KOMPETENTLIGINI
SHAKLLANTIRISHNING XALQARO VA MILLIY TAJRIBASI

Jalolova Feruza Mirkamol qizi
TDIU universiteti doktoranti
Telefon: +998977410883
e-mail: jalolovaferuza6@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada boshqaruv kadrlarining o'zini o'zi rivojlantirish tizimi maqsad va vazifalari yoritilgan bo'lib, boshqaruv kompetensiyalar standartlari va modelini ishlab chiqish zaruriyati ilmiy asoslangan. Mazkur materialdan tegishli soha vakillari o'zlari uchun nazariy manbaa sifatida foydalanishlari mumkin.

TAYANCH SO'ZLAR: boshqaruv kadrlari, oistiqbolli kadrlar, inson resurslarini rivojlantirish, boshqaruv kompetensiyasi, o'zini o'zi nazorat qilish, o'zini ijodiy namoyon qilish, o'zini anglash.

АННОТАЦИЯ: В данной статье выделены цели и задачи системы саморазвития управленческих кадров, научно обоснована необходимость разработки стандартов и моделей управленческих компетенций. Этот материал может быть использован представителями соответствующей области как теоретический источник для себя.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: управленческие кадры, перспективные кадры, развитие человеческих ресурсов, управленческая компетентность, самоконтроль, творческое самовыражение, самосознание.

ABSTRACT: In this article, the goals and tasks of the system of self-development of management personnel are highlighted, and the need to develop standards and models of management competencies is scientifically based. This material can be used by representatives of the relevant field as a theoretical source for themselves.

KEY WORDS: management personnel, promising personnel, development of human resources, management competence, self-control, creative self-expression, self-awareness.

Zamonaviy sharoitlarda jahon fani va innovatsiya faoliyatining yutuqlaridan keng foydalanish jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini izchil va barqaror rivojlantirishning, mamlakatning munosib kelajagini barpo etishning muhim omili bo'lib bormoqda.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida interfaol usullar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarni o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan kiziqish, e'tibor kundand-kunga kuchayib bormoqda.

Mamlakatimizda ta'lim tizimining moderinizatsiya qilinishi, ta'lim muassasalarida shart-sharoitlar, yuqori malakali mutaxasssilarga bo'lgan ehtiyoj va talabning o'sib borishi nafaqat oliy ta'lim muassasalari balki faoliyati samaradorligida ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, ularning innovatsion faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirib borishda bugungi kunda muhim muammolarni bartaraf etishga qaratilgan talablardan biri, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bu o'z navbatida pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlariga ijodiy yondashuvni talab qilmoqda. Ya'ni, pedagoglarning bilim, ko'nikma va malakalari, tajribasi, mahorati, omilkorligi asosida pedagogik jarayonlar samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlashi, pedagogik jarayon sub'ektlari (pedagog va talabalar) faoliyatini takomillashtirish yo'nalishlaridagi qarorlarni qabul qilishda mavjud vaziyatlarni, sub'ektlarning moyilligi, ehtiyoji va qiziqishini o'rganishi lozim.

Hozirgi kunda O'zbekistonda boshqaruv kadrlari soni yuz mingdan ortiq, ularning hammasini bir yilda yoki bir vaqtning o'zida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruv akademiyasi va uning filiallarida o'qitish imkoniyati vaqt nuqtai nazaridan cheklangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining boshqaruv kadrlariga qo'yayotgan talablari, davlatning bugungi siyosati, shuningdek, global pandemiya sharoitidagi islohotlar jarayonidagi o'zgarishlar har bir davlat xizmatchisining o'z ustida mustaqil ishlashini talab etadi. Boshqaruv kadrlarining o'z-o'zini kompetensiyaviy rivojlantirish uchun O'zbekistonda maxsus tizim yoki elektron platforma mavjud emas. Jahon tajribasiga ko'ra boshqaruv kadrlarini mustaqil tarzda o'zini o'zi rivojlantirish elektron platformalari mavjud.

Hozirgi kunda mamlakatda kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash borasida faoliyat olib borayotgan akademiya, institut, fakultet, markaz va malaka oshirish kurslari boshqaruv kadrlarini



to'liq qamrab olgani yo'q. O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida davlat boshqaruv kadrlarini tayyorlash va ularning malakasini oshirishda har bir sohaning xususiyatlari va bu soha xizmatchilariga qo'yiladigan talablardan kelib chiqqan holda malaka oshirish, boshqaruv kadrlarini tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi takomillashtirilmoqda. Bular qatoriga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruv akademiyasi, O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi, Qurolli Kuchlar Akademiyasi, Ichki ishlar akademiyasi, Xalqaro Islom akademiyasi, Bojxona Instituti, Toshkent shahri va mamlakat viloyatlaridagi pedagogik kadrlarning malakasini oshirish markazlari, viloyatlar hokimiyatlari qoshida tuzilgan o'z-o'zini boshqarish organlari rahbarlar malakasini oshirish o'quv markazlari shular jumlasidandir. Bu o'quv yurtlari va malaka oshirish markazlarida boshqaruv kadrlarining o'zini o'zi rivojlantirishga qaratilgan tizimli platforma mavjud emas.

Maqolaning asosiy maqsadi boshqaruv kadrlarining o'zini o'zi rivojlantirish tizimini yaratishdan iborat. Mazkur maqsaddan kelib chiqib, shuningdek, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning "Kadrlar bilan ishlash holatini ham tanqidiy tahlil qilish zarur"[2] degan fikrlariga asoslanib, boshqaruv kadrlarini uzluksiz rivojlantirishni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, o'zini o'zini rivojlantirish tizimini avtomatlashtirishda quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- elektron tanlov asosida boshqaruv kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha davlat buyurtmasini shakllantirish;
- yosh kadrlar uchun davlat organlari va tashkilotlaridagi tajribali rahbarlar va mutaxassislar tomonidan "master klass"larni portalga yuklash;
- istiqbolli kadrlarning Milliy kadrlar rezervini shakllantirish uchun onlayn maxsus o'quv kurslarini tashkil qilish;
- tanlov saralashlari natijalari hamda davlat organlari va tashkilotlarining kadrlar zaxirasini integratsiyalash;
- boshqaruv kadrlarini qisqa muddatlarda (masalan haftada bir marta) o'z ish joylarida onlayn malakasini oshirib borish. Bunda ro'y berayotgan muhim ijtimoiy-siyosiy jarayonlar tahlili bilan bog'liq ma'lumotlarni tahlilchilar orqali davlat xizmatchilariga yetkazib borish imoniyati kengayadi;
- boshqaruv kadrlarining kompetentligidan kelib chiqqan holda ikki holatda: onlayn maxsus kurslar tashkil qilish. Birinchi vaziyatda ularni o'z lavozimlariga qayta tayyorlash; ikkinchi holatda ularni lavozim o'sishiga erishish maqsadida malakasini oshirish kurslariga tavsiya etish;
- davlat xizmatchilarining «karyera modeli» asosida o'sishini ta'minlab beruvchi o'zini o'zi rivojlantirishga mo'ljallangan platforma yaratish. Platformada sohalar kesimida o'sib borishning aniq yo'lini belgilash va bu boradagi zarur ko'nikmalarni aniqlash. Mazkur platforma asosida lavozimdan kelib chiqib o'qitish tizimini yo'lga qo'yish va ularning «sotsial lift» orqali o'sishini ta'minlash. Bu lavozim jihatdan qanday bilimlar zarur bo'lsa, shularni o'zlashtirishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Boshqaruv kadrlarini uzluksiz rivojlantirishning nazariy-metodologik jihatlari tahlil qilinadi. Germaniya, Rossiya, AQSH, Fransiya va Yaponiyada davlat xizmatchilarining o'zini o'zi rivojlantirish tizimini o'rganish asosida boshqaruv kadrlarining malakasini uzluksiz rivojlantirish zaruriyatini ilmiy asoslash maqsadga muvofiq (1-rasm).

Boshqaruv kadrlari uchun quyidagi kompetensiyalar bo'yicha maxsus elektron o'quv kurslari yaratilishi lozim:

- boshqaruv mahorati;
- pedagogning etikasi;
- jamoada ishlash;
- innovatsiya yo'nalganlik;
- ish muloqoti;
- ishonchni shakllantirish;
- kommunikativlik\kirishimlilik;
- qadriyatlar;
- liderlik;
- loyihalarni boshqarish;
- natijaga yo'nalganlik;
- normativ hujjatlar va huquqiy me'yorlarni yaxshi bilish;
- pozitiv fikrlash;
- tizimli fikrlash;
- o'zgarishlarga moslanuvchanlik, stressga bardoshlilik;



- boshqaruv qarorlarini qabul qilish.

Maxsus elektron o'quv kurslari yaratilishi boshqaruv kadrlarining malakasini oshirish tizimini optimallashtirish imkoniyatini vujudga keltiradi, har bir davlat fuqarolik xizmatchisi mustaqil tarzda o'z ustida ishlashi, o'zini o'zi baholashi, o'ziga qulay vaqtda maxsus o'quv kurslarini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Boshqaruv kadrlarining malakasini oshirish qamrovi kengayadi. Ularning natijalari va munosabatiga qarab, ularning kompetensiyalarini baholash imkoniyati kengayadi.

Pedaogog kadrlarining boshqaruvchanlik salohiyati haqidagi ma'lumotlar quyidagi bosqichlar orqali o'rganilishi lozim

№	Platformada yaratilayotgan imkoniyatlar	Kutilayotgan natija
1	Shaxs haqidagi ijtimoiy demografik ma'lumotlar	Shaxs haqidagi barcha rasmiy ma'lumotlar rahbarlik ko'nikmalariga bog'liq ravishda tahlil qilinadi va ballar orqali ifodalanadi: Masalan, Ma'lumoti: bakalavr – 1 ball magistr – 2 bll PhD – 3 ball Til bilish darajasi: Ona tilini bilishi – 1 ball Bitta chet tilini bilishi – 2 ball Ikkita chet tilini bilishi – 3 ball Shu kabi ma'lumotlar (ya'ni obyektivkada o'rin olgan ma'lumotlarga ballar tizimida reyting qo'yib chiqiladi va rahbarlikka moyilligi o'rtasida aloqa o'rnatiladi)
2	Shaxsning bilimlarini onlayn tarzda aniqlash va baholash	Chet tillarni bilish darajasi. Boshqaruvga oid huquqiy savodxonligi. Boshqaruvdagi asosiy tamoyillarni bilishi.
3.	Asosiy kompetensiyalar bo'yicha bilim va malakalarni baholash	Har bir kompetensiyaga tegishli psixologik test va so'rovnomalar hamda keyslar taqdim etiladi. Natijada, quyidagi kompetensiyalar aniqlanadi: ·Tashkilot manfaatiga xizmat qilishga yo'nalgan qadriyatlarining rivojlanganlik darajasi ·Ta'limga, yangi bilimlar olishga moyilligi, tizimli fikrlash qobiliyati ·Yangiliklarga ochiqqligi, innovatsion yondashuvga moyilligi ·Liderlik salohiyatining rivojlanganligi ·Boshqaruv malakasiga va rahbarlik sifatlariga egaligi ·Yetakchi rahbarlik uslubi ·Qiyin va og'ir vaziyatlarda ishlay olishi va maqsadga intilish darajasi
4.	Ma'lumotlarni qayta ishlash va natijalarni tahlil qilish	Tadqiqotda ishtirok etgan shaxsning reytingi aniqlanadi va kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. "Sohalar bo'yicha aniqlangan salohiyatli va iqtidorli yoshlarni rahbar kadrlar zaxirasiga kiritish" bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi.
5	Asosiy kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha o'quv dasturlari va treninglar yaratish	Sust shakllangan kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha dasturlar ishlab chiqiladi. Istiqbolda (2022-yilda) onlayn vebinarlar tashkil etish va masofaviy ta'lim dasturlarini amaliyotga tatbiq etish rejalashtirilgan.

O'z-o'zini rivojlantirish va o'zini anglash g'oyalarini rivojlantirishning nazariy tahlili shuni ko'rsatdiki, Antik davrda insoniyat taraqqiyoti muammosi turli xil konseptual asoslarga (mifologiya, antik falsafa, din) asoslangan; ma'rifatparvarlik davrida (J.-J.Rousseau, J.G.Herder, K.A.Gelvetius) o'z-o'zini tarbiyalashning ifodasi sifatida o'z-o'zini rivojlantirish haqidagi qarashlar ma'qullana



boshlandi. Mumtoz nemis falsafasida (I.Kant, G.-V.F. Hegel, I.G.Fixte, Shelling) antropologik va gumanistik g'oyalar pedagogik yo'nalishda o'z-o'zini rivojlantirish muammolarini tushunishni qo'llab-quvvatlashgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Sh.M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: O'zbekiston, 2017.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli farmoniga 1-ilova.
3. A.X.Xolov. O'zbekistonda zamonaviy rahbar kadrlarni shakllantirish tizimini takomillashtirish masalalari. Monografiya. – Toshkent: «Yangi kitob», 2020.
4. A.X.Xolov Davlat fuqarolik xizmatchilarini uzluksiz rivojlantirishning nazariy-metodologik jihatlari. // “Jamiyat va boshqaruv” jurnali, 2020-yil 1-son.
5. K.B.Axmedjanov, A.X.Xolov. Davlat fuqarolik xizmatida kadrlar zaxirasini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2020-yil
6. <https://lightpdf.com/self-development-websites.html>



ФАЛСАФА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

МА'РИФАТ TUSHUNCHASINING TARIXIY-FALSAFIY MOHIYATI

Saidahmadov Shuhrat Shamsiyevich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi (PhD)

Annotasiya: Ushbu maqolada ma'rifatning diniy-tasavvufiy va ijtimoiy-falsafiy mazmuni, uning jamiyat hayoti va inson tafakkuri rivojidadagi o'rniga baho beriladi. Shuningdek, Yangi O'zbekiston sharoitida ma'rifatli insonning mavqeyi va o'rni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Ma'rifat, tasavvuf, inson ma'naviyati, komil jamiyat, dunyoqarash, milliy kolorit, falsafiy tahlil.

Sharq ma'rifatining mumtoz va benazirligi ham, albatta, ilohiy qarashlar, tavhidning eng yuqori maqomdagi ifodasida namoyon bo'ladi. Uni anglashda ma'rifat va irfon, ilm-tafakkur g'ayrati va shijoati talab etiladi. Aytish kerakki, ma'rifat, oriflik va ular zamirida yotgan ma'no boshqa tillarda muqobili uchramaydi. U islom negizida shakllangan o'zga tushunchalar qatori xos bir mazmun-mohiyatni anglatadi va mumtoz sharqona falsafa tabiatini aks ettiradi. Shundan ma'rifat, irfon tasavvuf va shu ruhdagi ilmning ham bosh masalasi hisoblanadi.

Sharq mutafakkirlari ma'rifat mohiyati, uning ilohiyot, insoniyat va jamiyatdagi mavqeyi haqida teran fikrlar bildirganlar. Masalan, Abdulkarim Qushayriy "Ulamo nazdida ma'rifat ilm ma'nosida kelur. Ularga ko'ra, har ilm bir ma'rifatdir, har ma'rifat esa bir ilm. Alloh haqida olim bo'lgan har kishi orifdir, har orif esa olimdir. Ma'rifat – xususiy tajriba, amaliyotda hosil qilingan bilim. Bu bilim har bir murid qalbida yangidan turli ko'lamda kashf etiladi. Demak, ma'rifat ilhom natijasida xos bandalarga hadya etilgan ilohiy in'omdir. Ilm esa umumiy, kulliy, nazariy, mujarrad bilim. Qalbning ma'lumotlarni bilishiga – ma'rifat va irfon, aqlning ma'lumotlarni bilishiga – ilm deyilgan. Ma'rifatning manbasi – sezgi (kashf, ilhom), ilmning manbasi dalildir. Ma'rifat – so'fiylarga tegishli bo'lgan ilmi ladundir. Oriflar mana shu ma'rifat va ilhomga mazhardirlar", – deydi [1.29]. Imom G'azzoliyning ta'kidiga ko'ra, "Qalbdagi ma'rifat maydonga kelgach, qalb holi o'zgaradi. Qalb holati o'zgargach, a'zolarining amallari ham o'zgaradi. Ya'ni amal holga, hol ilmga, ilm tafakkurga bog'liq bo'lib qoladi", "Odam botiniy ko'zi ochilmaguncha, to ma'rifat hosil qilmaguncha Haq jamolini ko'rolmas, Haq taolo jamolini mushohada qilolmas. Bas, ma'rifati ilohiyning kalidi Haq taoloning ajoyib yaratish va g'aroyib qudratlarini mushohada qilmoqdur... Va dilni hazrati Haq subhonahu va taoloning jamoli bokamoln mushohada qilmoq uchun xalq qilibdur... Va dilning g'izosi (ozig'i) Haq taoloning ma'rifati va muhabbatidir", – deydi [2.10]. Ibn Ato e'tirofiga ko'ra: "Ma'rifat ikki qismdan iborat. Biri – Haq ma'rifati, ikkinchisi, haqiqat ma'rifatidir". Hujviriy e'tirofida: "Ma'rifatning haqiqati orifning qalbida paydo bo'ladi. Ma'rifat – qalbning hayoti (tiriklik manbai) bo'lib, har bir kishi qadru qimmatini ma'rifat bilan farqlanadi. Ma'rifatsiz ko'ngil nurlanmaydi va ilohiy asrorni kashf eta olmaydi. Bunday qalb fayzsiz bo'lgani bois Tangri oldida qadr topolmaydi"[4;289].

Hazrat Alisher Navoiy esa bir ruboiysida:

Irfon ahlig'a el niyozi yaxshi,

Ta'zim ila lutfi dilnavozi yaxshi,

Gar ma'rifat o'lsa chorasoz yaxshi,

Toat ko'pidin, ma'rifat ozi yaxshi - deb "ko'p toatdan oz ma'rifat yaxshi" hikmati ma'nosini she'riy yo'lda badiiy ifodalaydi [3.194]. Bu xil fikr-qarashlar Sharq singari G'arb ijtimoiy-falsafiy hayotida ham ko'p keltiriladi. Ularda ma'rifat insoniyat buguni va kelajagi uchun xizmat qiladigan omil sifatida yuqori baholanadi. Shuni aytish kerakki, tarixdan falsafa va tafakkur irfoniy istilohlarga ehtiyoj sezadi. Bu istilohlar hozirgi davrlarda ma'nolari o'zgargan holda bo'lsa-da, faol qo'llanadi. Ayniqsa, turkiy tasavvufiy she'riyati-tariqati asoschisi Ahmad Yassaviy, uning izdoshlari Sulaymon Boqirg'oniy, Yunus Emro, Ubaydiylar merosida ma'rifat haqida chuqur falsafiy-badiiy fikrlar



bildiriladi. Bizning fikrimizcha, tasavvuf adabiyotida ma'rifat g'oyasini Hoja Axmad Yassaviy va uning izdoshlari singari teran talqin etgan ijodkorlar uchramasa kerak. Alisher Navoiy ham hayotdagi ma'rifatli insonlar haqida fikr yuritgan. Aytish lozimki, bu ta'riflarda ma'rifatli inson – komillik, ma'rifatli jamiyat – odillik timsoli sifatida e'tirof etiladi.

Shu ma'noda Axmad Yassaviyning o'zi ham tarixda orif sifatida mashhur bo'lgan shaxsdir. Ayniqsa, ma'rifat va oriflik ikkinchi bir to'ldirida Alisher Navoiy siyosi va ijodida yuqori bosqichga ko'tariladi. Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat”, “Nazm ul-javohir”, “Hayrat ul-abror”, “Mahbub ul-qulub”, “Holoti Said Hasan Ardasher” singari asarlari asosida ma'rifat talqiniga doir umumnazariy qarashlar ilgari suriladi. Unda shoir din va axloq, adolat va komillik, ma'rifat va oriflik, fano va baqo masalalaridan bahs yuritadi. Aslida ma'rifat, ya'ni Haq va haqiqatni tanimoq Sharq mutafakkirlarining bosh maqsadi bo'lgan edi. Zero, ma'rifat orqali inson o'zining sharifligini, dunyoga kelish maqsadini tushunadi. Sharq mumtoz adabiyotida o'lmas asarlar yaratgan ulug' so'z san'atkori Alisher Navoiy ayni zamonda ulkan ma'rifat va madaniyat darg'asi ham edi. Uning borliq, olam va odam haqidagi qarashlari, falsafiy-tasavvufiy mazmundagi asari mohiyati ham mana shu ma'rifat nuri bilan yo'g'rilgan edi.

Tasavvuf ta'limotida komil inson tadqiqotchisi sifatida Aziziddin Nasafiy inson sifatleri haqida to'xtalib, “Bilgilkim, aytib o'tilganiday, komil insonda to'rt narsa (sifat) kamolga yetgan bo'lishi kerak, ya'ni: ezgu so'z, ezgu ish, ezgu axloq va maorif. Ammo ozod komil inson uldirkim, unda sakkiz narsa (sifat) kamolga yetgan bo'lsin, ya'ni: ezgu so'z, ezgu ish, ezgu axloq, maorif, tark, uzlat, qanoat va xumul (benomu nishonlik, faqirlik). Kimki shu sakkiz narsani kamolga yetkazgan bo'lsa, u ham komil, ham ozod, ham bolig' (balog'atga yetgan), ham hur (erkin)dir”[5], –deydi va yana aytadiki, “Ey darvesh! Kimdaki avvalgi to'rt sifat bo'lsa-yu oxirgi to'rt sifat bo'lmasa, komildir, ammo u ozod emasdir. Kimdaki oxirgi to'rt sifat bo'lib, avvalgi to'rt sifat bo'lmasa, u ozoddir, ammo komil emasdir. Kimki aytilgan sakkiz sifatning hammasiga ega bo'lsa, ularni oxiriga yetkazgan bo'lsa, u komil, ozod, balog'atli va hurdir”[5], –deydi. Aziziddin Nasafiy qarashlarida maorif deganda ko'p narsani bilish –ma'rifatga yetish tushuniladi. “Dono solik albatta bu o'n sakkiz narsani bilishi, ilm ul-yaqin va ayn ul-yaqin orqali anglashi lozim: dunyoning ma'rifati, dunyo ishlarining ma'rifati, oxiratning ma'rifati, oxirat ishlarining ma'rifati, ajal ma'rifati, ajal hikmatining ma'rifati, shaytonni bilish, shayton amrlarini bilish, farish-taning ma'rifati, farishta amrining ma'rifati, payg'ambarning ma'rifati, payg'ambar so'zining ma'rifati, valiyning ma'rifati, valiy so'zining ma'rifati, o'zliging ma'rifati, o'z amrining ma'rifati, Xudoning ma'rifati, Xudo so'zlarining ma'rifati. Xohlasang, o'n sakkizta, xohlasang to'qqizta, xohlasang bitta deb ayt”[5], –deydi.

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan ko'rinadiki, ma'rifat, ma'rifatli inson va jamiyat haqidagi qarashlar ham Sharq falsafasiga ko'ra irratsional tahlil etiladi. Bunda ma'rifat – Haqni anglash ilmi, ma'rifatli inson – Haqni anglagan zot, ma'rifatli jamiyat esa Haq haqiqatlari qaror topgan makon sifatida talqin qilinadi. Biroq, bu qarashlar ijtimoiy-bashariy ma'nolarda ham ilohiy-irfoniy nuqtai nazarlarda bo'lgani singari birdek ahamiyat kasb etadi. Chunki, qadim Sharq falsafasiga binoan dunyoviylik ilohiylikning, foniylik boqiylikning majoz ifodasi sifatida talqin etiladi.

